

KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARDA BADIY ESTETIKLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Xayrullayeva Zarnigor Sarvar qizi

ISFT instituti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7139037>

Annotatsiya. Klasterli yondashuv asosida o'quvchilarda badiiy estetiklikni rivojlantirish muammosining pedagogik-psixologik adabiyotlarda o'rganilishi, pedagogik-psixologik xususiyatlari, texnologiyasi, o'quvchilarda badiiy estetiklikni rivojlantirish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Estetik madaniyat insonning dunyoqarashi, bilim-ko'nikmalari, individual xususiyatlari, o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatiga ham bog'liq jarayon. Estetik tarbiya juda keng ko'lamga ega bo'lib, insonni bir butun shaxs sifatida namoyon qiladi. Shuning uchun har qaysi davr, tuzum, jamiyat estetik tarbiyaga ehtiyoj sezadi. Biroq, bu jarayon pedagoglar zimmasiga juda katta vazifa yuklaydi. Ayniqsa, bugungi kunda oliy ta'lim muassasasida katta ehtiyojga aylanmoqda. Biroq, ko'pgina oliy ta'lim muassasalarida bu fanga nihoyatda jo'n va primitiv yondoshuv mavjudligini alohida e'tirof etish zurrur. Fanning maqsadini noto'g'ri tushunish mavjud. Estetik tarbiya ma'naviy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida inson ma'naviy va jismoniy olamining uyg'un tarzda rivojlanishiga ulkan hissa qo'shadi. Estetik tarbiyada insonning tashqi ko'rinishi, uning jamoat orasida o'zini tutishi, jismoniy baquvvat bo'lishi ham katta ahamiyatga ega. Shubhasiz, yuksak did ma'lum darajada kishining estetik tarbiya ko'rganidan dalolat beradi. Estetika fani voqelikni estetik mushohada qilish va badiiy ijod jarayonlarining uzviy mutanosibligini namoyon qiladi va ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, estetika—bu nafosat olami, san'at va badiiy ijod jarayonlari qonuniyatlarini his-tuyg'u, sezish-idrok qilish vositalari orqali o'rganadigan va o'rgatadigan fandır o'rganadigan va o'rgatadigan fandır.

Biroq, zamonaviy jamiyatda iste'molchilik, moddiy qadriyatlarga egalik qilish tendentsiyasi sezilarli bo'lib bormoqda. Shaxsning intellektual tarbiyasiga katta ahamiyat beriladi. Ratsional-mantiqiy yondashuv hissiy, hissiy komponentni siqib chiqaradi. Bu nomoddiy madaniy merosning qadrsizlanishiga, insonning ichki dunyosining qashshoqlashishiga va uning ijodiy salohiyatining pasayishiga olib keladi.

Estetik madaniyat milliy ongni, ma'naviy uyg'onish va taraqqiyotni nazarda tutuvchi omillardan biri bo'lib, bir qator ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Shu bois o'quvchilarda badiiy estetik didni rivojlantirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. O'quvchilarda estetik ongni rivojlantirish vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi.

Birinchidan, o'quvchilarda ezgu xislat-fazilatlarni rivojlantirish, onglilik, faollik va ijodiy qobiliyatlarni o'stirish;

Ikkinchidan, yangi texnika va texnologiyalardan ta'lim-tarbiya jarayonida unumli foydalanish;

Uchinchidan, yangi bozor iqtisodiyoti sharoitida o'quvchilarning huquqiy bilimlarni oshirish va o'z huquqlaridan to'g'ri foydalanish ham estetik madaniyat darajasini yuksaltirishni taqazo etmoqda;

To'rtinchidan, o'quvchilarni ma'naviy-ruhiy jihatdan tarbiyalash;

Beshinchidan, radio, matbuot, ayniqsa, «oynai jahon» kabi ommaviy axborot vositalarining turmushda keng o'rin olishi natijasida keskin ortib borayotgan axborotlardan to'g'ri va maqsadli foydalanish madaniyatini rivojlantirish;

Oltinchidan, o'z tanlagan kasbidan zavqlanish, muammolarga asosli yechim topish, tushkunlikka tushib qolmaslik, atrofdagilar bilan samimiy munosabat o'rnatish uchun muomala madaniyatini tarbiyalash estetik tarbiyaga yanada ko'proq e'tibor berishni talab etmoqda.

Estetik taraqqiyot shaxsning estetik ongi va estetik faoliyatining shakllanishi va takomillashuvida uzoq vaqtni talab etadigan jarayondir. Shaxsning estetik taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy va estetik tajribani ijodiy o'zlashtirish natijasida yuzaga keladi. Bu har xil yo'llar va shakllar orqali amalga oshiriladi. Shaxsning estetik jihatdan rivojlanishida ta'lim va tarbiya hal etuvchi rol o'ynaydi. Xalq pedagogikasi estetikaning «go'zallik-hayot demakdir» degan qoidasidan kelib chiqib, o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotdagi, mehnatdagi, turmushdagi, kishilar munosabatidagi go'zallikda ishtirok etishini, uning hayotni, san'atni idrok eta bilish qobiliyatini rivojlantirishni o'zining bosh vazifasi deb hisoblaydi

Estetik tarbiyaning strukturaviy tarkibiy qismlari:

1. Estetik tarbiya. Jahon va milliy madaniyat bilan tanishishni, san'at tarixi bilimlarini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi.
2. Badiiy va estetik tarbiya. U bolalarni ijodiy faoliyatga jalb qilishni, ularning didi va qadriyat yo'nalishlarini rivojlantirishni ta'minlaydi.
3. Estetik o'z-o'zini tarbiyalash. Uning jarayonida inson o'zini takomillashtirish bilan shug'ullanadi, mavjud bilim va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtiradi.
4. Bolaning estetik ehtiyojlarini, shuningdek, uning ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalash. Insonda go'zallikga bo'lgan ishtiyoq, o'z-o'zini namoyon qilish orqali dunyoga yangi narsalarni olib kirishni istash kerak.

Ilmiy adabiyotlarni va o'quv qo'llanmalarini ko'zdan kechirib shunday xulosaga keldikki, o'quvchilarda badiiy estetiklikni rivojlantirish uchun, o'quvchilarni muntazam ravishda muzey, ko'rgazmalarga, konsertlar va mahalliy diqqatga

sazovor joylarga olib borish; san'atga, badiiy adabiyot namunalarini o'qishga qiziqish uyg'otish; klassik musiqa nomoyondalari bilan tanishtirish va muntazam ravishda tinglash, baholash, unga munosabat bildirish janr va uslublarni ajratishni o'rgatish, tasviriy san'at bilan shug'ullanishni rag'batlantirish, sport bilan shug'ullanishni yo'lga qo'yish talab etiladi. Bu ishlarni to'g'ri amalga oshirish uchun o'qituvchi va ota-onalar hamjihatlikda yoshlarni san'at va go'zallikni chuqur his qiladigan, tushunadigan, o'z munosabatini bildira oladigan, estetik va axloqiy madaniyatga ega, vaziyatga to'g'ri baho bera oladigan shaxs etib tarbiyalashlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдулла Шер. Эстетика. Дарслик. –Тошкент: Гафур Ғулом номидаги матбаа-ижодий уйи. 2014. –Б. 327-328
2. Рукавишников А. Г. Эстетика интуитивизма НО Лосского : дис. – Московский государственный университет им. МВ Ломоносова (МГУ), 2009.
3. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. Monografiya. Toshkent: Universitet, 2009.
4. Sher A. Ulug'vorlik. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 9-jild. O'zbekiston Davlat ilmiy nashriyoti. 2004.